



QUR'ON QIROAT TURLARINING XUSUSIYATLARI

Rahmatov Iqboljon Izzatullo o'g'li

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi "Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO" kaferasi tayanch doktoranti

Annotatsiya:

maqolada Qur'on tilovati ilmida ohang va uning tilovatda qo'llanilishi borasida ishonchli ulamolarning fikrlari keltiriladi.

Kalit so'zlar: Qur'on, ohang, joiz, nojoiz, maqomot, tilovat, ohang, ruxiyat, tovushlar,

Qur'on qiroatlarning turli xilligi va foydali xususiatlari

Alloh taolo biror narsaning mavjud bo'lishi va yuzaga chiqishini iroda qilgan bo'lsa, albatta, uning ortida sir va hikmat bo'ladi. Qiroatlardagi tafovut ham mana shunday masalalardan biri bo'lib, u orqali ko'plab manfaatlar hosil bo'ladi. Ularning ayrimlari quyidagilardir:

Qiroat va yodlashni yengillashtirish. Bu ummiy bir xalq uchun katta yengillik edi, chunki ular ilgari shariatlarni yod olishga odatlanmagan edilar, qolaversa, bu narsaga tayyor ham emas edilar.

- a. Tilovat jarayonida xushu va tadabbur uchun ijobiy ta'sir ko'rsatishi.
- b. Olimlarning bu masalani chuqur o'rganishga qiziqishini orttirish. Ular qiroatlarni *har bir lafz darajasida* aniqlab, qoidalarning, imola va nozik farqlarni qayd etganlar. So'ng bu lafzlardan ma'no chiqarish, hukmlar istinbot qilish va tafsiliy tahlillar bilan shug'ullanishgan.
- c. Qur'on tafsirida va Alloh taoloning maqsadini anglashda ulamolar uchun ulkan foyda. Masalan, birinchi qarashda noto'g'ri tushuniladigan joylarni boshqa qiroatdagi lafzlar bilan aniqlashtirish mumkin. Bunga quyidagi oyat misol bo'la oladi: «لَا مِنْ يَوْمِ الْجُمُعَةِ فَاسْعَوْا إِلَىٰ ذِكْرِ اللَّهِ س.ا.ا. يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا إِذَا نُودِيَ لِلَّهِ فَأَسْعَوْا» Bu oyatdagi فَاسْعَوْا lafzi "tez yurish" degan ma'noni anglatadi. Bu oyatni o'qigan kishi juma namoziga yugurib borishni farz deb o'ylashi mumkin. Biroq boshqa qiroatda bu joy «فَامْضُوا»



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th September, 2025

«إِلَىٰ ذِكْرِ اللَّهِ» tarzida o‘qiladi, ya’ni “boringlar”. Bu esa oyat ma’nosining “yugurish” emas, balki “borish” ekanini ochiqlaydi.

4. Qiroatlarning turli bo‘lishi ummatga yengillik va rahmat bo‘lib, u faqat o‘qish va tilovatda emas, balki ma’nolarni anglash, amallarni bajarish va ijti hod qilishda ham qulaylik yaratadi. Qiroatlardagi bu tafovut dinning qiyinchilik emas, yengillik ekani haqidagi asl manbaga mos keladi.

5. Qiroatlardagi tafovut — bu Qur’onning Alloh tomonidan nozil qilinganiga aniq dalildir. Chunki lafzlar xilma-xil bo‘lsa-da, ular bir-birini rad etmaydi, balki to‘ldiradi, izohlaydi va mustahkamlab boradi. Bu Qur’onning i’j oz va balog‘at jihatidan mukammal ekanini ko‘rsatadi.

6. Qiroatlarning har biri oyatning ma’nosini o‘z uslubida bayon qilgani uchun, bir kalimadagi tafovut butun bir oyat o‘rnini bosadigan darajada kuchli bo‘ladi. Shu sababli har bir qiroat Qur’onning to‘laqonli bir qismi hisoblanadi.

7. Alloh taolo bu ummat uchun dinni yengil qildi. U zot bandalariga mashaqqat yuklamadi. Qur’onning yetti harfda nozil bo‘lishi ham har bir qavmga o‘z lahjasida, o‘zlariga qulay bo‘lgan tarzda o‘qish imkoniyatini berdi. Bu esa ularga boshqa lahjalarga moslashish zaruratidan xaloslikni ta’minladi.

8. Qiroatlardagi tafovut islom huquqi va qonunchiligida yangi fikrlar, keng tafsirlar, ijti hodlar uchun imkon yaratdi. Bu orqali islom huquqi turli davr va holatlarga mos ravishda o‘zgarishga, yangilanishga, moslashishga erishdi.

Qur’on qiroatlarining hukmi

Alloh taolo o‘qish va o‘rgatishni insoniyatga quyidagi oyat bilan buyurdi: «اقْرَأْ بِاسْمِ رَبِّكَ الَّذِي خَلَقَ». Alloh taolo o‘qishni qoriyning amali qilib belgiladi, o‘qilayotgan narsa esa O‘zining kalomi bo‘ldi, buni Qur’onning bir necha joyida ko‘rish mumkin. Qiroat – sunnat bo‘lib, unda fasohatli va undan ham fasohatli o‘qish mavjud. Bularning barchasi Alloh taoloning Qur’onni eslash uchun oson qilganining dalilidir. Ulamolar imomlarning qiroatlari sahifligiga ittifoq qilishgan va bu borada ijti hod qilishga o‘rin yo‘q. Qiroatlar “توقيفية” ya’ni, o‘z fikricha o‘zgartira olmaydigan, tanlovga emas, to‘xtatishga asoslangan.



Qur'on qiroatlarining qabul qilinish me'zonlari

Ulamolar bir qiroatning e'tiborga loyiq bo'lishini aniqlovchi mezonlar belgilashgan.

Unga ko'ra, qabul qilingan qiroat quyidagi uch shartga ega bo'lishi kerak:

1. I'rob va ma'noga to'g'ri kelishi
2. Sanadning sahih bo'lishi
3. Rasmul-mashafga (Usmon r.a mushafiga) muvofiqligi

Agar qiroat mutavotir bo'lsa, u arab tiliga va Usmon r.a mushaflaridan biriga muvofiq bo'lishi lozim. Shunda to'liq mutavotir sanaladi.

Quron tilovatining tezlik turlari

Tahqiq: Bu usulda har bir harfning haqi beriladi: maddlar to'liq bajariladi, hamzalar aniqlik bilan o'qiladi, harakatlar to'la ijro etiladi, izhor va tashdidlar, g'unnalar mukammal bajariladi, harflar tafsil bilan ajratiladi va o'rtalarida to'xtashlar bilan ohangdorlik saqlanadi. Bu usul Qur'on tilovatining dastlabki ta'lim bosqichida juda qulay va zarur bo'lgan uslub sanaladi.

1. Hadr:

Bu tur tilovati tez bo'lib, unda qisqartirish, sukun, ixtilas, badal, idg'om kabi qoidalar yengillashtirilgan holda o'qiladi. Kalimalar talaffuzi tushiniladigan va manoga ta'sir o'tkazmaydigan holat saqlanadi hamda, i'rob saqlanadi va talaffuz to'g'riligi ko'zda tutiladi.

2. Tadvir:

Bu usul tahqiq bilan hadr orasidagi o'rtacha o'qish usulidir. Ko'pchilik imomlardan rivoyat qilingan o'rta darajadagi o'qish shu tilovat uslubi bilan ifodalanadi. Odatda jamoat namozlari, Jum'a, Hayit, taroveh namozlarida qorilar tomonidan shu uslub qo'llaniladi.

3. Tartil:

Bu xotirjamlik bilan, ma'nolar ustida tafakkur qilib o'qish bo'lib, har bir harf o'z maxrajidan chiqadi, haqlari to'liq ado etiladi, qoidalar asosida asta o'qiladi.

Qiroatning toifalanishi:

1. Mutavotir:

Sanadi sahih bo'lgan va yetti qoriyning rivoyatlarida mashhur bo'lgan qiroatlar.



2. **Mashhur:**

Sanadi sahih, ammo mutavotir darajasiga yetmagan, ammo o‘qilishi mustahkam bo‘lgan qiroatlar. Bu o‘n qiroatni to‘ldiruvchi uchta qiroatni o‘z ichiga oladi: Ya‘qub, Xalaf, Yazid qiroatlari.

3. **Ohod:**

Sanadi sahih bo‘lishi mumkin, lekin Usmon mushafiga yoki arab tili gramatik va fonetik qoidalariga mos kelmaydi hamda yetti qiroatning orasida mashhur emas.

4. **Shoz:**

Sanadi sahih bo‘lmagan qiroat.

5. **Mavdu‘:**

Asli bo‘lmagan va noto‘g‘ri ravishda kimgadir nisbat berilgan qiroat.

6. **Mudraj:**

Qiroatga tafsir ma‘nosida qo‘shilgan qo‘shimchalar.

To‘g‘ri va maqbul bo‘lgan qiroatlar – **mutavotir va mashhur** qiroatlardir. Shoz qiroatlar esa sahih qiroat shartlaridan biri buzilgani uchun qabul qilinmaydi.

Qiroatlarning ma‘no jihatidan birlik va ko‘plikka ko‘ra bo‘linishi: bu ikki turga bo‘linadi:

Qur‘on qiroat uslublarning ma‘no jihatdan turlari

1. **Ma‘nosi bir xil bo‘lgan qiroatlar:** So‘zlarda farq bo‘lsada, ma‘no bir xil bo‘ladi. Masalan, madda, hamza yengillatilishi, izhor, va h.k. Quyidagicha: «**الَّذِينَ يُؤْمِنُونَ**» – bu so‘z **yu‘minuna** (hamza bilan) va **yuminuna** (hamzasiz) shakllarida qiroat qilingan.

Yana misol: «**وَإِنْ يَأْتِوكُمْ أُسَارَى تَفَادَوْهُمْ**» – bu oyatning **asro** (hamzasiz, alif yo‘q) shaklida Hamza qiroat qilgan, boshqalar esa **usara** (hamzali, alifli) shaklida.

Ma‘nosi ko‘p bo‘lgan qiroat turlari:

So‘zlar ham, ma‘nolar ham farq qiladi. Masalan: «**وَلَمَّا ضُرِبَ ابْنُ مَرْيَمَ مَثَلًا إِذَا قَوْمُكَ مِنْهُ**» – bu oyat **yassiddu** (sodni zamma bilan, Nofe, Ibn Amir, Kisa'iy) va **yasiddu** (sodni kasra bilan, boshqa qiroat imomlari) tarzida qiroat qilingan.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th September, 2025

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mustafó Sodiq ar-Rofi'iy. I'jaz al- Qur'an val balag'o nabaviyya. – Bayrut: Dar al- kitab al-arabiy, 2004.
2. Jaloliddin as-Suyutiy.Muxtasar Al-itqon fi ulum al-Qur'an.-Bayrut: Dar an-nafais, 1985.
3. Muhammad al- Mutavalliy. Ar- Ravd an-nazir fi tahrir avjah al-kitab al-munir.2004.
4. Sayyid Rozzaq at –Tovil.Fi ulum al- qiroat. – Makka: 1985.
5. Al-qoziy al-Baqloniy.Al- insof fima yajim I'tiqodahuo – Qohira: Al-maktaba al-azhariyya lit-turos,2000.
6. Ibrohim Abdulloh Rafida. An-Nahv va kutub at-tafsir. – Liviya: Ad-dar al-jamahiyya, 1990.
7. Tohir al- Jazairiy. At- tibyan liba'd almabahis al- mutaliqo bil –qur'an. – Qohira: Matba' al- manar, 1334h.
8. Badriddin az- Zarkashiy. Al-Burhan fi ulum al- qur'an. – Bayrut: Dar al- kitab al-arabiy, 1980. 1981.
9. Muhammad Ahmad Ma'bad. Al- mulxas al-mufidfi ilm at-tajvid. – Qohira: Dar as-salam, 2002.
- 10.Sulaymon bin Iyso Bokliy .At-tilava as-sohihaqiroa an-nafi'.– Jazoir: Al-matba' al-arabiyya, 1999.
- 11.Abdurrohman Ad-Dahsh. Al-aqval ash-shazza fit tafsir. – Saudiyya: Silsilat al-hikma, 2004.
- 12.Nabil Ibrohim Oli Ismoil. Ilm al-qiroat. - Saudiya Arabistoni qirolligi: Ar-Riyod. Maktaba at- tavba, 2000.